

Biz korrupsiyaga qarshimiz

Borliq yaralibdiki, hamisha u o'z bag'rida ikki qarama-qarshilikni saqlab keladi. Jumladan, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yozuvlik, adolat hamda nohaqlik kabi xislatlar insonlar ichida hamisha barhayotdir. Ularni tubdan yo'q qilib bo'lmaydi, darhaqiqat, ammo ularning sodir bo'lish holatlarining oldini olish imkoni bizda mujassamdir.

Korrupsiya – jamiyat, millat kelajagiga xavf soluvchi qudratli bir kuchdir. U bugun yoki bir necha yil oldin paydo bo'lib qolmagan. Uning ildizlari tarix sahnalariga borib taqaladi. Avvalo, bu so'zning ma'nosiga to'xtalib o'tar ekanmiz, korrupsiya - (lotincha: corrumpom – aynish, poraga sotilish) -mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishdan iborat amaliyotdir.

O'tgan asrlarda korrupsiya bo'lmagan deb o'ylash mutlaqo xatodir, boisi biz korrupsiyaning turli ko'rinishlarini, izlarini ko'ra olamiz. Garchi u qog'oz pul sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, qadim asrlardan qabilada hukmronlikni qo'lga olish uchun yoki davlat tizimida ma'lum mavqe egallamoq uchun taqinchoqlar, oltin-kumushlar yoxud hayvonlar ham yuqori amaldagi insonlarga "tuhfa" qilingan. Qadimgi Rimning o'tmishini olib qarar ekanmiz, hattoki insonlar ham shu tuhfalar qatorida bo'lgan. "Xolis qilingan tuhfalar" nafaqat inson qadrini, balki butun jamiyatni ham izdan chiqargan. U davrlarda korrupsiya deya atalmagan bo'lsa-da, bu jarayon azaldan borligiga tarixiy manbaalar ham guvohlik beradi.

Bu iskanjali, dahshatli illatga bir inson qo'l urar ekan, u faqat o'zini emas, balki atrofidagi barcha insonlar, o'zini ham xarob qiladi. Korrupsiya misoli o'rgimchak to'riga o'xshaydi. Uning to'riga ilingan har qanday hasharot o'rgimchakka yemak bo'ladi, undan qutulmoq imkonsiz. Ta'kidlamoq lozimki, ushbu zararli hodisa katta yoki kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. U makon yoki zamon, vaqt tanlamaydi.

Korrupsiyaga qadam qo'ygan inson uchun ortga yo'l yo'q, boisi mehnatsiz kelgan tuhfa, pullar kimga yoqmaydi, deysiz. Iymon-e'tiqodli,

tarbiyali insongina bunday narsalarning harom ekanini bila oladi. Bu hodisa vaqt o'tib borgani sayin illatga ham aylanib bormoqda. Bu illat faqat insonni moddiy tomondan emas, ma'naviy tomondan ham qashshoqlashishiga sabab bo'lmoqda. Harom luqmani yeb ulg'aygan yoshlar kelajagi nima bo'ladi!? Bu yoshlar, axir, jamiyat, millat kelajagi emasmi!?

Demak, o'z kelajagimizni, haqiqatan ham, o'z qo'llarimiz bilan barbod etmoqda ekanmiz-da!!! O'z dinining farz va sunnatlariga amal qilgan, odob-axloq, tarbiya olgan chin musulmon inson korrupsiya atalmish poraxo'rlikka qadam bosmaydi. Allohning kalomi nozil bo'lgan Qur'oni Karimda ham: “ Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar”, –deya nozil qilingan. Hattoki Injilda ham : “ Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi”, – deyilgan. Hadisi shariflatda pora beruvchi, uni oluvchilar ham la'natlangan, hattoki porada vositachi bo'lgan inson ham Allohning la'natiga uchrashi ta'kidlangan.

Korrupsiya millat taqdirini, milliy o'zlikni yo'q qilib boradi. Yoshlarni kelajakka ishonch bilan boqishiga to'sqinlik qiladi. Xalqning davlatga ishonchi o'ladi. Biror joyda adolatsizlikka uchragan, korrupsiyadan zararlangan inson, bu joyga aslo qaytmaydi yoki bu yerga qasd qilib, adolat o'rnatmoq uchun qaytishi mumkin.

Bugungi kunda korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 14-oktabrida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” qonun loyihasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi. 2017-yil 4-yanvardan kuchga kirdi. Uzoqdan emas, o'zimizga yaqin bo'lgan ta'lim tizimida ham juda katta ishlar amalga oshirildi. Masalan, ta'lim jarayonida poraxo'rlik hamda baholarni ma'lum summa evaziga o'zlashtirish singari holatlarning oldini olish uchun bu sohada yangi tizim o'ylab chiqildi. Oliy dargohlarning barchasi bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazildi va bugungi kunda

maktablarda kundalik.com , oliy dargohlarda esa HEMIS dasturi bardavom ishlamoqda va ko‘plab yoshlarimizning ta’lim olish jarayonlarida shaffoflikni ta’minlab bermoqda. Hech bir o‘quvchi muttasil dars qoldirishi yoki darsdan qochish holatlari bo‘lmaydi va o‘qitish samaradorligini ham ta’minlayotgan bu dasturlar shu sohada adolatni o‘rnatdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu va bu kabi ko‘plab samarali ishlar jamiyatimiz bo‘ylab keng quloch ochmoqda va xalqning, millatning joniga oro kirmoqda. Korrupsiya kirib bormagan sohaning o‘zi bo‘lmaganidek unga qarshi kurashish uchun barcha usullar qo‘llanmoqda va samarali natijalar olinmoqda.

Harakat bir tomondan emas, ikki tomondan qilinsa, marraga tezroq yetib boriladi. Ya’ni, korrupsiyaga qarshi faqat davlat organlari, shuningdek, ishlab chiqilgan samarali qonunlar orqaligina erishib qolmaymiz. Bu qonunlarni amalda ijro etish faqat davlatning emas, bizning ham majburiyatimizdir. Korrupsiyani ko‘rgan joyimizda yo‘q qilish, unga qo‘l urmaslik va bu yo‘lga qadam bosmaslik har bir tarbiyali va axloqli insonning burchi hisoblanadi hamda jamiyat bo‘ylab huquqiy ongni rivojlantirib, har bir insonni o‘zining shaxsiy huquqlari bilan tanishtirish orqali korrupsiya sodir bo‘lishining dastlabki bosqichini yo‘q qilgan bo‘lamiz.

Biz, yoshlar, korrupsiyaga qarshimiz. Biz adolatli va buyuk kelajakni yaratamiz va bu yo‘lda Prezidentimizning biz yoshlarga bo‘lgan ishonchlari, shuningdek, ularning xalqimiz uchun qilayotgan har bir harakatlari, chiqargan qarorlari va baxtimiz qomusi Konstitutsiyamiz yo‘lboshchi bo‘ladi. Keling, korrupsiyaga birgalikda kurashaylik. Biz birgalikda yengilmas kuch bo‘lamiz!

Boltaboyeva O.